

## INGLIZ TILIDA YORDAMCHI FE`LLARNING TUSLANISHI

**Ataboyev Axadjon Djumaqoziyevich**

*Andijon davlat chet tillar instituti Ingliz tili filologiyasi  
tillar o`qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti dekani*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada til muloqot qilish va dunyo bo'ylab insonlarning bir-birlari bilan aloqada bo'lishlari va mamlakatlararo yaxshi munosabatlarni o'rnatishning birlamchi vositasi ekanligi, yordamchi so'zlarning grammatik morfemalarga o'xshash tomoni ularning morfemalar kabi mustaqil nominativ funksiya bajarmasligi haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** til, muloqot, dunyo, o`rnatish, chet tillar, takomillashtirish, o`rgatish, maqsad, vosita, funksiya.

Yurtboshimizning chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan chiqargan qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida yurtimizda ko'plab salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtboshimizning fikrlariga ko'ra, har bir soha egasi o'z sohasini mukammal egallashi va jahon miqyosida raqobatlasha olishi uchun xorijiy tilni bemalol tushuna olishi va unda puxta so'zlasha olishi zarur. Ma'lumki, xorijiy tilni o'qitishda o'rganuvchilarning yosh va psixologik holatini hisobga olish juda muhimdir. Ayniqsa, yosh bolalarga chet til o'rgatishda bunga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Yurtboshimizning qarorlarida ham bu masalaga etibor qaratib o'tilgan, ya'ni birinchi sinf o'quvchilariga xorijiy til o'rgatishda grammatik material taqdim etilmaydi. Shu o'rinda grammatikaga qisqacha ta'rif berib o'tsak. Lug'atlarda berilgan ta'riflarga ko'ra, grammatika og'zaki va yozma nutqni qurishda rioya qilinadigan qoidalar va prinsiplar tizimidir; so'z va gaplarning tuzilishini o'rganadigan fandır. Teaching English Grammar in Malaysian Primary Schools qo'llanmasida keltirilishicha, grammatika bu til sistemasidir. Ba'zida odamlar grammatikani tilning "qoidalari" deb tasvirlaydilar; ammo aslida xech qaysi tilning qoidalari yoq. Qo'llanmada ta'kidlanishicha, tilda qoidalar asosida gapirilsa, qoidalar tildan avval paydo bo'lgan degan ma'noni chiqmasligi uchun qoidalar yo`q degan fikrga ham kelingan. Zero, dastavval odamlar tovushlar hosil qilib, ketidan so'z, ibora hamda gaplar yasab tilni vujudga keltirilganlar.

Til muloqot qilish va dunyo bo'ylab insonlarning bir-birlari bilan aloqada bo'lishlari va mamlakatlararo yaxshi munosabatlarni o'rnatishning birlamchi vositasidir. Zamonaviy dunyoda ingliz tili boshqa tillarga nisbatan turli davlatlar, mamlakatlar va mintaqalarda istiqomat qiluvchi ko'proq odamlar

tomonidan foydalaniladigan til sifatida boshqa tillardan ajralib turishi sir emas. U bugungi kunda meditsina, injenerlik, jurnalizm, ta'lim, biznes, ilm-fan, texnologiya va ommaviy axborot vositalari, farmakologiya ilmiy izlanishlar kabi ko'plab sohalarida yetakchi rolb o'ynayotgan til bo'lib qoldi. Ingliz tilini xalqaro til maqomiga olib chiqqan bir qancha omillar mavjud. Internetdagi aksar ma'lumot ingliz tilida bo'lganligi tufayli bu tilni biladigan va vebsaytlardan kerakli ma'lumotni o'z vaqtida olishga imkoni bo'lgan muta-xassislarga talab kundan kun ortib bormoqda.

Ingliz tilidagi so'z turkumlarini, xususan, fe'llarni o'rgatishda hatti-harakatlar orqali amalga oshirilsa, bolalar uchun qiziqarli va muhimi esda qolarli bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalar mavhum so'z yoki tushunchalarni tushunmaydilar. Shuning uchun aniq otlar kabi mavhum ma'noda bo'lmagan fe'llar harakatlar orqali o'rgatilishi mumkin. Masalan, give, show, take, see, hear, speak, dance, sing, jump, run, kick, play, eat, clap, drink, open, close, sleep, sweep, swim va hokazolarni amalda ko'rsatib esda qolarli qilib o'rgatish mumkin. O'quvchilar o'rgatiladigan fe'llar nafaqat mavhum ma'nodan holi, balki aytishga oson, talaffuzi yengil bo'lishi lozim. Ko'rinib turganidek, yuqoridagi so'zlar bir bo'g'inli so'zlar boshlang'ich bosqichdagi o'rganuvchilar tomonidan oson o'zlashtiriladi. Darslarda keng qo'llaniladigan ashulada fe'llar hatti-harakatlar orqali o'rgatiladi. Yordamchi deganda, odatda, boshqa fe'lga grammatik ma'lumotlarni qo'shish orqali (faqat) "yordam beradigan" fe'l tushuniladi.<sup>[2]</sup> Shu asosda ingliz tilidagi yordamchilarga quyidagilar kiradi.

- fe'l shakllari qil (qil, qiladi, qildi) savollar, inkor, urg'u va boshqalarni hosil qilish uchun boshqa fe'l bilan ishlatilganda (qarang) qil- qo'llab-quvvatlash);

- fe'l shakllari bor (bor, bor, bor edi) ifodalash uchun foydalanilganda mukammal jihat;

- fe'l shakllari bo'lishi (bor, bu, edi, edi) ifodalash uchun foydalanilganda progressiv jihat yoki majhul nisbat;

Yordamchilarni so'zlarga quyidagilar yaqinlashtiradi:

a) shaklan alohida ajralib turish;

b) lug'aviy ma'noning mavjudligi (sifat ko'makchilar, ot ko'makchilar, fe'l ko'makchilarda...);

v) ko'pincha ularning mustaqil so'zlarga yaqinlashishi, ulardan kelib chiqishi. Yordamchi so'zlarning grammatik morfemalarga o'xshash tomoni ularning morfemalar kabi mustaqil nominativ funksiya bajarmasligi (ammo, va, sayin, kabi), qo'shimchasimon shaklda bo'lishi (-u, -yu, -da; -ki (-kim); -

dek (-day), -cha) va boshqalar. Biroq yordamchi so'zlarning grammatik morfemalardan farqli tomoni shundaki:

1) ular gap bo'lagi, so'z birikmasi, gap sathida sintaktik xarakterdagi vazifa bajaradi. Bu xususiyat ko'makchilar uchun xos.

2) gap bo'laklari yoki gaplarni o'zaro bog'laydi. Bunday funksiyada, asosan, bog'lovchilar va yuklamalar keladi. Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlar va so'z-gaplar oralig'ida «oraliq uchinchi» maqomini oladi. O'z navbatida, yordamchi so'zlar ham o'z ichida umumiy belgilariga ko'ra oraliq uchinchini ajratib chiqaradi. Ya'ni bog'lovchilarda bog'lash, yuklamalarda gap mundarijasiga ta'sir qilish mohiyatni belgilash darajasida bo'lsa, ko'makchilarda sanalgan har ikki belgi mushtarakdir. Bu ularning «oraliq uchinchi»lik mavqeini ko'rsatadi.

Yordamchi so'zlarning shakliy xususiyatlariga ko'ra turlari. Yordamchi so'zlar shakliy xususiyatlariga ko'ra:

- a) qo'shimchasimon yordamchi so'zlar;
- b) sof yordamchi so'zlar;
- v) nisbiy yordamchi so'zlar.

Yordamchi fe'llar (Auxiliary verbs) To be, To have, To do, shall (should), will (would) fellari yordamchi fellar deyiladi. Chunki ular yordamida felning turli murakkab shakllari yasaladi. Bu fe'llar simple present va simple past zamonlarining bo'lishli shaklidan tashqari barcha fe'l zamonlarini yasashda ishlatiladi. Yordamchi fe'llarning mustaqil ma'nosi bo'lmaydi. Ma'noni ular bilan birga kelgan asosiy fellar beradi. Ular zamoni, shaxsni, sonni, nisbatni va boshqalarni ifodalashda ishlatiladi. Misollar: I am reading-men o'qiyapman. They have come-ular kelishdi. Do you speak english- siz inglizcha gapirasizmi? He will return soon-ular tezda qaytadi. Ba'zan to be, to have, shall, (should), will, (would), fellari modal fel manosida kelib zaruratni, istakni, niyatni ifodalaydi. Ba'zan to be-bolmoq, to have-ega bo'lmoq, to do-qilmoq fellari ma'nosida asosiy fe'l bo'lib ham keladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

1. 1. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish"
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi «CHet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875-sonli qarori.
3. Xoshimov O'. Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. T., - 2003